

TOSHLAR TILGA KIRGANDA : QASHQADARYONING TARIXIY XAZINALARI

To'xtayeva Sevinch Ural qizi

Qarshi Davlat Universteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining tarixiy va madaniy yodgorliklari o'rganildi. Hududning qadimiy shahar xarobalari, arxeologik yodgorliklari, memoriy obidalar va islomiy ma'daniyat inshootlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Tarixiy yodgorlik ,shahar xarobasi, Yerqo'rg'on, Nasaf, me'moriy obida, topilma, Amir Temur, madrasa madaniyat.*

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubida joylashgan bo'lib, o'zining betekror tabiati, boy maaniy merosi va ko'p asrlik tarixiy yodgorliklari bilan ajralib turadi. Bu hudud qadimdan Sug'diyona va Baqtriya kabi yirik tarixiy –madaniy mintaqalar tarkibida bo'lgan. Natijada bu yerda qadimiy shaharlar, qal'alar, ibodatxonalar va boshqa ko'plab moddiy madaniyat obidalar vujudga kelgan. Qashqadaryoning tarixiy yodgorliklari o'zbek xalqi tarixining muhim qirralarini ochib beradi. Qashqadaryo viloyatining ma'muriy markazi – Qarshi shahri. Qadimiy shahar nomining tarixi qiziq. Bobur toponimning tarixini “Boburnoma” asarida tilga olgan. U shunday deb yozgan edi: “Yana bir tuman Qarshi bo'lib, uham Nasaf va Naxshab deb ataladi. Qarshi – mo'g'ulcha nomi; qal'a yoki maqbara mo'g'ulcha – “Qarshi”. Bu nom shu yerda o'z qarorgohiga asos slogan Kepekxonning qurilish ishlarini aks ettiradi. Keyinchalik Amir Temur davrida shahar atrofida mudofaa de'voir barpo etilgan. Qarshi – zamonaviy yangi binolar qadimiy obidalar bilan uyg'unlashib ketgan qiziqarli maskan. Bu yerda siz turar joy binolariva shahar infratuzilmasi bilan yonma – yon joylashgan bir qancha ibodat joylarini ko'rishingiz mumkin.

Yerqorg'on. Yerqo'rg'on – Koson tumanidagi qadimiy yodgorlik bo'lib, arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, miloddan avvalgi I ming yillikda bunyod etilgan.²¹ Bu yerda qadimiy qal'a devorlari, turar joylar, spool buyumlar, tangalar va kulolchilik mahsulotlari topilgan. Yerqo'rg'on hududi qadimda sug'diylar tomonida yashab o'tilgan va bu joy vohaning qadimgi markazlaridan biri bo'lib hisoblangan. Qazilma ishlari arxeologlar tomonidan 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab olib borilgan.

²¹ Elmurodov N.N Qashqadaryo vohasida ilk temir davrining nomoyon bo'lishi: Yerqo'rg'on va Uzunqir yodgorligi misolida. Zenodo.org, 2024

Nasaf.Qarshi shahri qadimda Nasaf deb nomlangan .Bu shahar IX-XII asrlarda islomiy ilm fan ,madaniyat va savdo markazi bo’lgan.Mashhur allomalar Imom Abu Hafs an-Nasafiy va Abu Muin an –Nasafiy²² shu yerda tug’ilib ,ilmiy faoliyat yuritganlarShaharda joylashgan qadimiy madrasalar ,masjidlar va hammomlar Nasafning o’sha davrda yuksak taraqqiy etganligini ko’rsatadi.Hozirgi Qarshi shahri o’sha qadimgi Nasaf shahri poydevorida shakllangan.

Kitob geologik va paleontologik yodgorliklari.Kitob tumani geologik nuqtai nazardan noyob hudud hisoblanadi.Bu yerda dinovavr izlari,qadimgi dengiz hayvonlariningtoshga aylangan qoldiqlari topilgan.Shu asosda Kitob geologiya muzeyi tashkil etilgan²³.Bu hududda geologik qatlamlar 300 million yildan ortiq tarixni o’z ichiga oladi.UNESCO tomonidan etirof etilgan “Global geologic meros hududi” sifatida tan olinishi Kitob yodgorliklarining jahon miqyosidagi ahamiyatidan dalolat beradi

Qarshi qal’asi.Qarshi qal’asi Amir Temur davrida barpo etilgan bo’lib,asosan siyosiy va harbiy maqsadlarda xizmat qilgan .Qal’a shakli ,himoya devorlariva darvozalari o’sha davr harbiy arxitekturasining namunasi hisoblanadi.²⁴Qal’a atrofidasuv omborlari ,qo’riqlash minoralari va savdo rastalari mavjud bo’lgan .Qal’a ichidagi ayrim binolar keyinchalik Buxoro amirligi davrida qayta tamirlangan.

Shulon tepaligi(Yakkabog’ tumani) . Shulon tepaligi-qadimiy turar joy bo’lib ,arxeologlar tomonidan ilk temir davri va keying bosqichlarga oid topilmalar aniqlangan.Bu hududda haykaltaroshlik buyumlari ,tangalar,maishiy asboblari topilgan .Bu yodgorliklar orqali qadimgi qashqadaryoliklarning madaniy darajasi ,urf odatlari va xo’jalik faoliyati haqida tasavvurga ega bo’lishi mumkin.

Abu Ubayd ibn al-Jarroh yodgorlik majmuasi.Ubayda al-Jarroh mashhur lashkarboshi ,siyosatchi,Muhammad payg’ambarni hamrohi va tabibi edi.Afsonaga ko’ra ,u o’q bilan yaralangan payg’ambar (s.a.v) davolay olgan. Majmua XV asrda qurilgan va yaqinda ta’mirlangan.Maqbara hududida laylak shakli tushirilgan minora ,nihoyatda shaffof va toza hovuz ,dafa etilgan joylar qadimiy topilma ashyolar ,eski chinorlarni ko’rish mumkin.Majmuaga kiraverishda gulzorli keng xiyobon joylashan.

Qarshi ko’prigi.Boy tarixga ega qadimiy ko’prik . Uning bir necha nomi bor:Amir Temur ko’prigi ,Shayboniylar ko’prigi .Inshoot 1583-yilda forscha uslubda

²² Karimov.H .Nasaf allomalari,Qarshi:Nasaf ,2011,45-bet

²³ . O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi .Kitob geologiya muzeyi materiallari.T.:Geologiya 2020

²⁴ Bobojonov B.Amir Temur va Qashqadaryo.toshkent:”Sharq”,2000,78-bet

qurilgan. Qurilish Abdullaxon II tashabbusi bilan boshlangan bo‘lib ,u uchun shaharda nafaqat piyodalar ,balki savdo karvonlari uchun ham uchun o‘tish yo‘lini yaratish muhim edi. O‘sha paytda Qarshi savdogarlar uchun muhim to‘xtash joyi bo‘lgan. O‘shandan beri ko‘priksaharning ramzi bo‘lib kelgan. Uning uzunligi 122 metr, kengligi 8 metr ,suv ustidan balandligi 5 metr va 10 ta tutashtiruvchi kamarlardan tashkil topgan.

Odina madrasa va masjidi. Bu shaharda ilk bor ayollar uchun madrasa va masjid qurilgan. Majmua XVI asrda vayron bo‘lgan Kepekxon saroyi o‘rnida qurilgan .Madrasada ayollarga ilm –fan va diniy ta‘limotlar o‘rgatilgan. Odamlar namoz o‘qib farzandlari yaqinlari uchun Allohga shukronalik keltirib masjidga kelishgan .Bunday diniy majmua O‘rta Osiyoda yagaona bo‘lib ,hech qayerda tengi yo‘q edi.

Ko‘k gumbaz masjidi. Qarshi jome masjidi XVI asr oxirida qurilgan. Bino o‘zining ulug‘vorligi va go‘zalligi bilan hayratda qoldiradi, o‘sha davr odamlari bunday go‘zallikni qanday qilib qurishga muvaffaq bo‘lganligining o‘zi juda ham hayratlanarli.

Sardoba. Sardoba-suv yig‘ish ombori, XIV asrda qurilgan. Mintaqaning iqlimi ancha qurg‘oqchil bo‘lganligi sababli tuzilma yomg‘ir suvlarini yig‘ish imkonini bergan. Sardoba XX asr boshlariga qadar faoliyat yuritgan, hozirda esa foydalanilmay kelayotganligi sababli ichki qismiga kirib ko‘rish imkoniga egamiz.

Bugungi kunda Qashqadaryodagi qadimgi yodgorliklarni tizimli o‘rganish ,ularni restavratsiya qilish va xalqaro miqyosda targ‘ib etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu boradagi har bir ilmiy izlanish nafaqat tarixni o‘rganish ,balki o‘zligini o‘rganish ,ma‘naviy yuksalish va milliy birdamlikni mustahkamlash yo‘lida muhim qadamlardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLA

1. Elmurodov N.N Qashqadaryo vohasida ilk temir davrining nomoyon bo‘lishi: Yerqo‘rg‘on va Uzunqir yodgorligi misolida .Zenodo.org, 2024
2. Karimov. H .Nasaf allomalari, Qarshi: Nasaf ,2011, 45-bet
3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi .Kitob geologiya muzeyi materiallari. T.: Geologiya 2020
4. Bobojonov B. Amir Temur va Qashqadaryo. Toshkent: "Sharq", 2000, 78-bet